

SALIB YURISHLARINING TASHKIL ETILISHI VA YAKUNI HAQIDA

Do'stmurodov Bahodir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi

1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi

Email address:

zazu87338@gmail.com

[Tel: +998 95 2287981](tel:+998952287981)

Rahimov Javlon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi

1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi

Email address:

javlonrahimov880@gmail.com

[Tel: +998 93 450 30 74](tel:+998934503074)

Xurramov Otabek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi

1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi

Email address:

Otashbekxurramov28@gmail.com

[Tel: +998 90 872 72 03](tel:+998908727203)

Mahmaraimov Izzat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi

1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi

Email address:

mahmaraimovizzat@gmail.com

[Tel: +998 95 700 56 09](tel:+998957005609)

G'oyibnazarov Mo'min

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix mamlakatlarda yo'nalishlari bo'yicha” yo'nalishi

1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi

Email address:

goyibnazarovmumin@gmail.com

[Tel: +998 99 254 34 68](tel:+998992543468)

Annotatsiya. Ushbu maqolada salib yurishlari harakatining boshlanishi va uning sabablari, oqibatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, asosan arab xalifaligi va salibchilar o'rtasidagi munosabatlar aks ettirilgan. Salib yurishi harakatlari boshlanish va tugash yillari, oradagi vaqt mobaynida bo'lgan o'zgarishlar, voqea va hodisalar haqidagi ma'lumotlar ham o'rin egallagan.

Kalit so'zlar. Salib yurishlari, Arab xalifaligi, knyazliklar, gospitalerlar, qilichbardorlar, "Xudo qabri", g'ayridinlar, xristian cherkovlari, salib yurishi belgilari

Abstract. This article provides information about the beginning of the Crusades movement, its causes and consequences, and mainly reflects the relationship between the Arab Caliphate and the Crusaders. There is also information about the beginning and end of the Crusades, the changes that took place during the intervening period, events and incidents.

Key words. Crusades, Arab Caliphate, Principalities, Hospitallers, Sword Bearers, "God's Tomb", Gentiles, Christian Churches, Symbols of the Crusades

Kirish. Tarixga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, juda ham ko'plab urushlar, davlatlar kelishmovchiliklari va o'zaro nizolarga ko'p duch kelganmiz, eshitganmiz. Shunday urushlarning ko'pida asosiy sabab va muammo bu-yerga egalik qilish va bir davlat ustidan boshqa davlatning hukmronlik qilishi kabilarni keltirishimiz mumkin. Mana shunday urushlardan yana biri bu "Salib yurishlari harakati" deb nomlanadi. Xo'sh bu qanday yurish ekan, bu harakatning boshlanishiga va aynan salb yurishi deya nomlanishiga nimalar sabab bo'lgan ekan degan savollar ko'p berilishi tabiiy, keling bu savollarga birma bir javob topib, bilim va ko'nikmalarimizni mustahkamlab olamiz.

Avvalo salb yurishlari deganda Yevropa feodallarining XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha (1096-1270 yillarda) uzoq vaqtdavomida Yaqin Sharqda-Suriyada, Falastinda, Misrda, Balqon yarimorolida, Kipr orolida va boshqa joylarda olib borilgan diniy tusdagi bosqinchilik urushlari edi. Bu bosqinchilik urushining nomi xristian dini ramzi nomidan olingan. Xristian cherkovining ramzi (+) salb (krest, xoch) deb atalib, u qizil rangli bo'lgan.

Salb yurishida qatnashganlar salbchilar deb nomlangan. Ular kiyimlariga salb belgisini (+) tikib olganlar. Bu o'z roziligi bilan salb yurishida qatnashishga niyat qilganlikni anglatgan, qasam ramzi hisoblangan.

Tahlil va natijalar. Salb yurishlarining boshlanishini, sabablarini va bu harakat davomida qanday natijalarga erishilganini keling endi birgalikda tahlil qilib o'tsak, salb yurishlarining sabablarini qisman XI asrning II yarmida Yaqin Sharqda yuz bergan o'zgarishlardan, hamda feodal G'arbiy Yevropaning o'zidagi iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy ziddiyatlardan deb hisoblasak ham bo'ladi. Birinchi salib yurishlariga Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli viloyatlaridan kelgan ritserlar to'plangan. Ular

yaxshi qurollangan, zarur ozuqa va pul bilan ta'minlangan ham edilar. Ushu urushga to'plangan ritserlarga 1096 yilning kuz oylarida Konstantinopolda imperator Aleksev I vassallik qasamyodini qabul qildirganlar. Bu esa Yaqin Sharqda tuzilayotgan xristian davlatlari Vizantiyaga siyosiy qaram bo'lishini ko'zlagan holda boshlangan harakat edi. Bu yurishning yakuni esa Suriya vilan Falastinda salibchilarning o'z davlatlarini tuzishi bilan yakunlangan. Ushbu davlatlarning ichida Quddus qirolligi salibchilarning asosiy davlati yashaydigan makoni edilar. Shu o'rinda salibchilar birgina Quddusni egallash uchun jome masjidida 10 ming musulmonni o'ldiradilar. Yahudiylar o'z sinagogasida yondirib yuboriladilar. Shunday qirg'in urush davomida ko'plab ayollar va norasida go'daklar halok bo'ladilar. Hatto ular shaharliklarning uyiga bostirib kirib, eshikka qalqonini osib qo'yishganlar va buning sababi bu uy barcha jihozlari bilan endi yangi xo'jayinga o'tkazilganligi edi. Shu tariqa ular Yevropadan Yaqin Sharqqa qarab o'z yurishlarini davom ettiradilar. Yaqin Sharqdagi yurishi davomida salibchilar mahalliy dehqonlarni o'zlariga qaram qilgan holda, olgan hosiling 1/3 qismini soliq sifatida olib qoladigan bo'ladilar. Yana kamiga qo'shimcha tarzda aholi, qirolga, xristian cherkoviga ham soliq to'lashga majbur bo'ladilar. Bunday zulm va tazyiqlar ostidagi xalq tomonidan salibchilarga nisbatan nafrat va g'azab uyg'onib qo'zg'olonlarga ham sabab bo'ladi. Shu tariqa salibchilar juda ko'p hududlarni bosib oldilar va o'sha hududlarda o'z davlatlarini tuzdilar. Bu davlatga birinchi Gotfrid Bulyonskiy qirol etib saylandi, biroq Quddus qirolligi uning vorislari zamonida qat'iy rasmiylashtiadi. (Bu qirollik 1099-1291 yillarda yashagan bo'lin, qirollik Gotfrid Bulyoniskiy tomonidan tuzilgan va 1291 yil turk sultoni Qulovun tomonidan tugatilgan).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Salib yurishi harakati haqida tarixiy adabiyotlarga nazar soladigan bo'lsak bu bir oddiy xalqlarning ustidan o'z hukmronligini o'tkazish ustidan amalga oshirilgan salib yurishi harakatlari nomi bilan yozilganligini bilib olish qiyin emas va shu bilan birgalikda adabiyotlar tahlili natijasida salib yurishlari orqali bu harakat Shimoliy va Sharqiy Fransiyada boshlanib Tunisdagi va shuning yaqinidagi hududlargacha yetib borganligini hatto biz ularning geografik joylashganligini ham bilib olsak bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Salib yurishlari haqida adabiyotlarga nazar solar ekanmiz tarixan bu yurushlar bitta, ikkita yoki uchta emas naqd sakkista saib yurishlarini amalga oshirgan ekan. Bu yurishlar qisqa vaqt ichida bo'lib etgan harakatlar ham emas, shuncha vaqt mobaynida qanchadan qancha insonlar, norasida go'daklar halok bo'lgan, oddiy xalq vakillari esa salib yurishi harakatchilari tomonidan berilgan vazifalar va chiqargan qonunlarga so'zsiz itoat qilib kelishganlar. Ushbu salib yurishining sakkizinchi harakati Tunisni bosib olish va uni qamal qilish bo'ladi, ammo, fransuzlar lagerida o'lat kasali boshlanganligi sababli hatto qirol ham halok bo'ladi. Shu tariqa bu yurush yevropaliklarning so'nggi yurishi bo'lib, bu salibchilik

harakati bayrog`i ostida Yaqin Sharqdagi musulmonlar joylashgan hududlarni bosib olishni maqsad qilib qo`ygan edi. Shundan so`ng Sharqqa qilinadigan yurishlar to`xtaydi, salibchilarning yer-mulkari birin-ketin qisqarib turklar qo`liga o`ta boshlaydi.

Xulosa va takliflar. Keling endi yuqoridagi ma`lumotlardan kelib chiqqan holda salib yurishlari harakati haqida qisqachagina fikr va xulosalarimizni ham keltirib o`tasak, birinchi navbatda bu yurishning sababi, diniy maqsad emas, balki dunyoviy maqsad bo`lib, yangi yerlarga hukmronlik qilish va boyliklarni bosib olishga qaratilgan harakat edi. Ushbu salib yurishi natijasida Sharq xalqlari talanib, minglab begunoh kishilar nobud bo`ldilar, gullagan shahar va qishloqlar xonavayron qilinib vayronaga aylantirildi, Shu bilan birgalikda bu yurish natijasida Yevropa sholi, grechka, tarvuz ekinlarini o`rganadilar, o`rik va limon daraxtlari esa g`arb mamlakatiga ham yetib boradilar. Shu tariqa bir qancha kasblarni ya`ni shoyi to`qish va oyni yasashni ham o`rganib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. Tursunboy. Salimov 7sinf “Jahon tarixi” darslik
2. https://www.google.com/search?salib+yurishlarining+tashkil+etilishi+va+yakuni+haqida&rlz=1C1GCEA_enUZ1015UZ1015&oq=&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqCQgAEEUYOxjCAzIJCAAQRRg7GMIDMgkIARBFGDsYwgMyCQgCEEUYOxjCAzIJCAMQRRg7GMIDMgkIBBBFGDsYwgMyCQgFEEUYOxjCAzIJCAYQRRg7GMIDMgkIBxBFGDsYwgPSAQ8xMjY1ODE5NzQ0OWowajeoAgiwAgE&sourceid=chrome&ie=UTF-8#fpstate=ive&ip=1&vld=cid:d2816272,vid:keVW14nmmeU,st:0
3. <https://library.tsd.uz/storage/books/March2022/bVG60I8qbEsopqzGsv5w.pdf>
4. https://www.google.com/search?q=salib+yurishlarining+tashkil+etilishi+va+yakuni+haqida&sca_esv=587028756&rlz=1C1GCEA_enUZ1015UZ1015&tbm=vid&source=lnms&sa=X&ved=2ahUKEwi2oI2N6e6CAxXwIBAIHf1MBNIQ_AUoAnoECAMQBA&biw=1370&bih=694&dpr=1#fpstate=ive&vld=cid:5a7f6bd1,vid:A3uj9hyfeO0,st:0